

## IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRINING MUHIM YANGILIGI SIFATIDA

*Mo'ydinova Shoxsanam Doniyorbek qizi*

*Andijon davlat Pedagogika instituti*

*Pedagogika-psixologiya kafedrasasi o'qituvchisi*

*Tel: 998905240995*

**Annotation:** Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning psixologik-pedagogik tekshirish, ushbu muxitga moslashtirish va qo`llab quvvatlash o`quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va aqliy saloxiyatini oshirishni muxim tamoyilaridan biri bo`lib xizmat qiladi. Ilk yoshdagi bolani psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy maksadi: bolaning ruxiy rivojlanish darajasini aniqlash, psixik funktsiyalarining shakllanish xususiyatlarini urganish, ruhiy rivojlanishidagi buzilishlar (nuqsonlar) xarakteri va darajasini aniqlashdir.

**Аннотация:** Психолого-педагогическое обследование младших школьников, адаптация и поддержка в этой среде является одним из важных принципов развития мышления и интеллектуального потенциала учащихся. Основной целью психолого-педагогического обследования ребенка первого года жизни является определение уровня психического развития ребенка, изучение особенностей сформированности психических функций, определение характера и степени выраженности нарушений (дефектов) психической деятельности.

**Abstract:** Psychological and pedagogical examination of primary school students, adaptation and support to this environment is one of the important principles of developing students' thinking and intellectual capacity. The main purpose of psychological and pedagogical examination of the first-year child is to determine the level of mental development of the child, to study the characteristics of the formation of mental functions, to determine the nature and extent of disorders (defects) in mental development.

**Kalit so'zlar:** tafakkur, boshlang'ich sinf o`quvchilari, talim jarayoni, mashg'ulot jarayoni, predmetlar.

**Ключевые слова:** мышление, младшие школьники, учебный процесс, учебный процесс, предметы.

**Keywords:** thinking, elementary school students, learning process, learning process, subjects.

### KIRISH

O`quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammolari bo'yicha ham do'stlik mamlakatlarida bir qancha tadqiqot ishlari bajarilgan. P.A.Bachelor, L.M.Vekker,



R.Nemov, A.Luriya, L.Vygotskiy, S.Rubinshteyn, V.SHadrikov, L.Venger, V.Aseev, K.Abulxanskaya-Slavskaya, D.Lyusin, Ye.Xlystova, Ye.Ilin, B.Anan'ev, Ye.Stepanova, B.Velichkovskiyalar tafakkurning kognitiv omillar bilan bog'liqligini, ijodiylik – insoning tafakkur faoliyatining muayyan shakli sifatida o'rjanib, uning o'ziga xos psixologik jihatlarini ochib berilganlar.

O'zbekistonda o'rta va umumta'lim maktablari va oila tizimlarida o'quvchilar ijodiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish borasida tadqiqot olib borgan psixolog olimlar E.G.G'oziev, B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, N.S.Safoevlarning rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda munosabatning ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatidagi talqinlariga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.**

-“Kichik muktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari”masalasini nazariy va amaliy tadqiq etilishi bo'yicha adabiyotlar tahlili; ma'lumotlar bilan tanishish

- Ijodiy tafakkurning namoyon bo'lishini aniqlash va ularning yuksak darajadagi qobiliyatlarga aylantirish bo'yicha tajribalar tashkil etish;

- Kichik muktab yoshidagi o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammolarini o'rjanish;

- O'quv faoliyati asosida ijodiy tafakkurni shakllantirish usullarini tadqiq etish;

- Amaliy tajribalar tashkil etish va umumlashtirilgan holda ijodiy tafakkurni shakllantirishning asosiy vositalari va omillari yuzasidan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish

### **Muhokama.**

Bola tafakkuri, qiziqlishi, moyilliklari, asosan, boshlang'ich sinflardan shakllanib individual qiyofa kasb eta boshlaydi. Bu davrda o'rjanilishi ko'zda tutilgan o'quv fanlarining har biri boladagi hissiy-irodaviy xususiyatlar va bilish jarayonlarining qaysidir biriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Masalan, matematika darslarida mantiqiy tafakkur va xotira; o'qish darslaridahis-tuyg'u, nutq madaniyati, kommunikativlik; ona tili darslarida bog'lanishli nutq, ijodiy fikrlash; tasviriy san'at darslarida tasavvur, xayol, fantaziya; jismoniy tarbiya darslarida iroda, xarakter xususiyatlarini tarbiyalash maqsadiga oid ta'limiy vazifalar amalga oshiriladi. Ayniqsa, ona tili va o'qish fanlari o'quvchilar ijodiy tafakkurini kamol toptirishda alohida o'rinn tutadi.

“O'qish” darsligida, asosan, kichik matn yaratish, sarlavha topish, reja asosida bayon yozish, asar mazmuniga doir rasm chizish, hikoya tuzish (o'quv yili yakunida) kabi topshiriqlar orqali ijodiy fikrlash masalasiga e'tibor qaratilgan. Yuqorida fikrlardan boshlang'ich ta'limda insho o'tkazish metodikasini takomillashtirish orqali o'quvchilar ijodiy tafakkurini o'stirish mumkinligi haqidagi xulosaga kelish mumkin.

Uzluksiz adabiy ta'lim jarayonida insholar xususiyatiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- a) qayta xotiralash xususiyatiga ega bo'lgan insholar;
- b) qisman izlanuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan insholar;
- v) ijodiylik xususiyatiga ega bo'lgan insholar.

Bunday xususiyatdagi insholar, asosan, yuqori sinflar adabiyot darslarida o'tkaziladi. Lekin kichik sinflardan boshlab insho yozishga tayyorlab borish o'quvchilarning ijodiy malakalari hamda bog'lanishli nutqini o'stirishga zamin yaratadi.

Qayta xotiralash xususiyatiga ega bo'lgan insholarni yozishda, asosan, darslik materiallariga tayaniladi. Bunday mazmundagi insholar darsda o'rganilgan mavzular tahliliga, asarning g'oyaviy mazmunini yoritishga bag'ishlanadi. Ta'kidlash mumkinki, boshlang'ich sinflar "O'qish" darslarida assosiy e'tibor o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga (qayta hikoyalashga), o'qish texnikasiga rioya qilishga yoki o'qish tezligini oshirishga qaratiladi.

Qisman izlanuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan insholar mustaqil o'qilgan asarlar yuzasidan yaratiladi. Bunday mazmundagi insholar qisman izlanishni, ya'ni o'quvchidan asarga mustaqil baho berishni talab etadi. O'quvchi asar va hayotdagi voqealarni qiyoslashi zarur bo'ladi.

Ijodiylik xususiyatiga ega bo'lgan insholar o'qituvchi va o'quvchidan tinimsiz izlanishni taqozo etadi. Bunda o'quvchidan yon-atrofidagi voqealarga nisbatan sinchkov va uzatuvchan bo'lishi, hayotni o'rganishi, egallagan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llay olishi, ijodiy faoliyat ko'rsatishi talab etiladi.

### Natija.

O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lishi lozim. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi, ya'ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko'z bilan ko'rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko'rish va ikkalasini bog'lab, unlini mo'ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo'g'in o'qish o'qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi. Bunda "Alifbe" sahifalaridagi so'zlarni oldin bo'g'inga bo'lish, so'ng o'qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O'qituvchining namunali o'qishidan so'ng birgalikda ovoz chiqarib o'qish, yakka-yakka o'qish, shivirlab o'qishdan foydalilaniladi. Ayniqsa, sekin o'qiydigan o'quvchilar bo'lgan sinflarda xor bilan o'qitish o'qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so'zlarni xattaxtada bo'g'inxilarga bo'lib yozish, o'rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo'shimcha so'z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalilaniladi. Ma'lumki, "Alifbe" sahifalarida bo'g'in tuzilishi murakkablashib boradi. SHuning uchun o'qituvchi har bir bo'g'in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarni belgilab olishi zarur. Masalan, uch

tovushdan tuzilgan, to'rt tovushdan tuzilgan bo'g'lnlarni o'qishga o'rgatish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda o-lov, Man-non tipidagi bo'g'lnlarda o-lo:v, Ma:n-no:n tarzidagi qo'shimcha chiziqdandan, bodring, do'st tipidagi bo'g'lnlarda bo:d-ri:ng, to':r:t tarzidagi qo'shimcha chiziqlardan foydalaniladi. Umuman olganda, har bir o'qish darsida, albatta, bo'g'in tuzilishi murakkab bo'lgan so'zlarni o'qish mashqi o'tkazilishi lozim. Bu usul o'quvchilarda o'qish malakasining takomillashuviga yordam beradi. O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish ko'nikmalarini hosil qilish o'quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo'naltiradi. O'quvchi tushirib qoldirilgan harf va so'zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e'tibor beradi, o'rtoqlariga nisbatan tez topib, o'qituvchining rahmatiga sazovor bo'lishga intiladi. Ijodiylik xususiyatiga ega insholar ijtimoiy hayot, mehnat; shaxsiy kechinmalar va taassurotlar; tabiat manzaralari; kishilar turmush tarzi, ularning mehnat jarayoni, portret, yozuvchi hayoti va ijodiy faoliyatiga doir rasmlar asosida; haykaltaroshlik, me'morchilik, musiqa va tasviriy san'at asarlari haqidagi mavzularni yoritishi yuzasidan bo'lishi mumkin. Ijodiylashtirilgan insholarning muvaffaqiyatli chiqishi bir qator omillarga bog'liq. Bular: mavzuning qiziqarli bo'lishi; bir vaqtning bir nechta mavzuning tavsiya etilishi; o'qituvchi rahbarligi hamda tevarak-atrofni, odamlarning turmush tarzi yoki xattiharakatlarini kuzatishga odatlantirish kabilardir.

Mavzuning qiziqarliligi o'quvchiga motivatsiya bersa, ko'p variantlilik ixtiyoriy tanlashga sharoit yaratadi. O'quvchi faoliyatini to'g'ri yo'lga sola bilish esa muvaffaqiyat omildir. Atrof-olam va hayotni kuzatishga odatlantirish orqali o'quvchida to'plangan ma'lumotlardan o'z o'rnida va tizimli foydalanish malakasi shakllantiriladi. O'qish darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, nutq madaniyatini shakllantirish texnologiyasi Mashg'ulot maqsadi:o'qish darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi ilgor usullar, o'quvchilarda nutq madaniyati va notiqlik san'atini shakllantirish bo'yicha ko'rsatmalar berish. Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzziy o'stiriladi. Darsda o'qilganasarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo'llanadi. O'qilgan asarni analiz qilishda har xil ish uslublaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o'qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o'qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so'raydi. Natijada o'qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O'qituvchi bergan savollar yordamida

Demak, o'qituvchining tevarak-atrofdagi o'zgarishlarni kuzatishga doir topshiriqlar berishi; adabiyot va san'atnamunalari bilan muntazam tanishib borishini yo'lga qo'yishi; zarur manbalar bilan ta'minlashi; mustaqil ishslashga qulay muhit

yaratishi kabi ta'limning didaktik tamoyillarini e'tiborga olishi va bunda bolalarning fiziologik-psixologik xususiyatlarini nazarda tutishi ijodiy tafakkur rivojida o'zining ijobjiy samarasini beradi

### Xulosa.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarini aqliy, axloqiy va tafakkurini rivojlantirishda birinchi navbatta bolaning o`zi va ota onasi o`rtasidagi aloqalarni o`rganish, taxlil qilish va shunga asoslanib bolaga psixologik tasir qilish muxim axamyatga ega. Kichik yoshdagi bolalarda o`quv jaraytoni boshlanganda uning atrofidagi kishilar bilan xilma-xil munosabatlari yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil tushunchalar uyg`onadi. Bularning xammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshka bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jixatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining assosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffakiyat va muvaffakiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi xislarning yuzaga kelishi xisoblanadi

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Davaletshin M.G. Zamonaviy maktab -o'qituvchisi psixologiyasi. - Toshkent 1998.
2. Psixologiya. qisqacha izogli lugat .Toshkent, 1998.
3. Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum. T.1991.
4. Umumiyy psixologiya.P.I.,Ivanov.
5. Psixologiyadan ma'ruzalar matni. Toshkent.1999y
6. Umumiyy psixologiya M.V.Voxidov. Toshkent 1992 yil.
7. Umumiyy psixologiya A.V.Petrovskiy. Moskva1976 g